



**QASHQADARYO VILOYATI  
QAMASHI TUMANI HOKIMINING  
QARORI**

180500, Qamashi shahri, Amir Temur ko'chasi, 1-uy. Tel: (375) 53-24-490, t.qamashi@exat.uz

---

2022 - yil 11 - avgust

303-4-58-Q/22

Qamashi tuman hokimligi

**Qamashi tuman mahalliy budjetining 2022- yilgi zaxira jamg'armasi mablag'lari  
hisobidan tuman Hokimligiga mablag' ajratish to'g'risida:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2022-yil 7-iyun kuni "Xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash hamda daromadlarini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" o'tkazilgan 47-son hamda 2022-yil 6-iyul kuni "Qurilish va ipoteka sohalarida islohatlarni jadallashtirish hamda arxitektura oliygohlarini transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" o'tkazilgan 57-son yig'ilish bayonlariga va Qashqadaryo viloyat hokimi birinchi o'rinbosarining 2022-yil 5-avgustdagi 03/2927-son xatiga muvofiq hududlarni rivojlantirishning yagona konsepsiyasini ("master-reja") ishlab chiqish, loyihalarni amalga oshirish uchun joriy yilning 15-20-avgust kunlari Turkiya davlatiga xizmat safariga yuborilayotgan tuman hokimining birinchi o'rinbosari Raximov Tojiddinni xizmat safari xarajatlariga mablag' ajratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy Davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan

**QAROR QILAMAN:**

1. Tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri (Pardayev) tuman mahalliy budjetining 2022- yilgi zaxira jamg'armasi mablag'lari hisobidan tuman Hokimligiga, joriy yilning 15-20-avgust kunlari Turkiya davlatiga xizmat safariga yuborilayotgan tuman hokimining birinchi o'rinbosari Raximov Tojiddinni xizmat safari xarajatlariga 25,0 mln. (yigirma besh million) so'm mablag' ajratsin.

2. Tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri (Pardayev) belgilangan tartibda moliyalashtirish rejasiga o'zgartirish kiritishni, tuman G'aznachilik bo'linmasi boshlig'i (Bekpulatov) ajratilgan mablag'ni kassa ijrosini o'z vaqtida amalga oshirishni ta'minlasin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (Xushmurodov) mazkur qarorga asosan ajratilgan mablag‘ni belgilangan maqsadlarga sarflanishini ta’minlasin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmda qoldiraman.

**Tuman hokimi**



**B.Tog‘ayev**